

## **KURSANTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMADIA VOSITALARINING O'RNI**

*Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o’rganish” kafedrasи o‘qituvchisi*

***Sh.I.Musayeva***

**Annotatsiya** Ushbu maqola multimedia vositalari yordamida talabalarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari haqida muhokama qiladi.

**Kalit so‘zlar:** multimedia, video, audio, elektron darslik, kompetensiya, muloqot, madaniyatlararo muloqot kompetensiya

**Annotation** This article discusses some important facilities of improving students’ intercultural communication competence by multimedia resources.

**Key words:** multimedia, video, audio, e-book, competence, communication, intercultural communication competence

Respublikamizda mustaqillik yillarida zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish, jumladan, chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish kabi ishlarga alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, jumladan, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashning ilg‘or chet tajribalarga asoslangan milliy tizimi yaratildi. Chet tili ta’limida multimedia vositalarining amaliy ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgani bois bugungi kunda, xususan, oliy ta’limda multimedia vositalari va elektron darsliklardan foydalanish keng tus olmoqda. Biroq multimedia vositalari va elektron darsliklardan foydalanishning didaktik va ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqilishi davlat ta’lim standartlari talablarining bajarilishi va ta’lim samaradorligining ortishida muhim omillardan biridir. Bugungi kunga kelib jamiyatda chet tillarni bilish tobora

muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chet tilini bilish yoshlarga jahon madaniyatiga hamohang bo‘lish, internet global tarmog‘ining keng resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek axborot va kommunikatsiya texnologiyalari va multimedya o‘qitish vositalari bilan ishlash imkoniyatini beradi. Talabalarning ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish shundan dalolat beradiki, multimedia ham media ta’lim vositasi sifatida, ham ingliz tilini o‘rgatish vositasi sifatida ishlatalishi mumkin, chunki media ta’lim vositasi sifatida multimedia talabalarning media malakasini shakllantirish, xabarlarni olish, tanqidiy baholash va mustaqil shakllantirishni o‘rgatishga qaratilgan. Ingliz tilini o‘rgatish vositasi sifatida multimedia bir tomonlama yo‘naltirilgan didaktik funksiyani bajaradi va o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi. Keyingi yillarda mashg‘ulotlar jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash to‘g‘risidagi masala dolzarb tus olmoqda. Bu nafaqat zamonaviy texnik vositalar, balki o‘qitishning yangi shakllari, ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv demakdir. Multimedia vositalaridan foydalanish ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, talabalarning o‘ziga xos xususiyatlari, bilim darajasi, moyilliklarini hisobga olgan holda tabaqlashtirish va har biriga alohida yondashishni ta’minlaydi. Ingliz tilini kompyuter dasturlari yordamida o‘rganish talaba va o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Ta’lim jarayonida chet tilini o‘qitish mobaynida ham multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish mumkin. Hozirgi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida tinglovchilarni o‘qitish ikki barobar samarali bo‘lmoqda. Ma’lumki, eshitgan materialning to‘rtadan bir qismi xotirada qoladigan bo‘lsa, tinglovchilarga berilayotgan materiallarni video orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 35-70 foizgacha oshadi. Shuningdek, mazkur o‘quv dasturlar audio, video va grafika ko‘rinishida mujassamlashtirilgan holatda tinglovchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 70-95 foizga oshishi kuzatilmoqda.[1] Bundan tashqari audio-video materiallar yordamida biz talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ham samarali natijalarga erishishimiz mumkin. Hammamizga ma’lumki, har bir dars

jarayonida biror xorijlik bilan jonli muloqot qilish imkoniyati yo‘q, shuning uchun dars davomida biror vodeoni tomosha qilish, audio materialini tinglash talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda muhim bir turtki bo‘ladi deb ayta olamiz. Kasbiy sohadagi madaniyatlararo o‘zaro hamkorlik xususiyatlarini va o‘zga tilda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga nisbatan zamonaviy talablarni o‘rganish bo‘lg‘usi chet tili o‘qituvchilarining o‘zga tildagi kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish modelini samarali amaliyotga tadbiq etishning: ijtimoiy-madaniy kommunikatsiya kontekstini kengaytirish; o‘quv jarayonida texnologik resurslardan samarali foydalanish (o‘quv jarayonini tashkil etish, koordinatsiyalash va javob berish munosabatlarini amalga oshirish jarayonida o‘qituvchining talabalar bilan dialogli o‘zaro hamkorligini ta’minlash); amaliy mashg‘ulotlarda interfaol va kommunikativ-faoliyatli metodlarni qo‘llash, o‘quv jarayonini faollashtirishning turli usullaridan, tanqidiy fikrlash va refleksiyani rivojlantirish kabi usullaridan foydalanish; o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarini ishlatish; talabalarning bilimga qiziqishlarini va ichki motivatsiyalarini o‘stirish kabi pedagogik shart-sharoitlari majmuuni aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy dars deganda, bugungi kunda, yangi zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda, jahon tajribalariga asoslanib dars o‘tishni tushunmoq kerak. Bunda asosiy e’tibor o‘qitishning natijasiga, ya’ni talabalarning nazariy bilimlarni mukammal egallashiga va shu bilan birga yetarli amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga, ya’ni olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishga, va ayniqsa talabalarning mustaqil bilim olish ko‘nikmasini shakllantirishga ham alohida e’tibor berilishi kerak. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv talabalarning mavjud bilim va ko‘nikmalarini amaliy tajriba jarayonida qo‘llay olish qobiliyatini nazarda tutadi.[2] Ta’lim jarayonida tilning zamonaviy shakliga mos o‘quv materiallaridan foydalanilsa, talabalarning chet tilidagi kommunikativ malakalarining sifat ko‘rsatkichlari ancha oshadi, bu esa bo‘lajak mutaxassislarga real madaniyatlararo kommunikatsiyada ishtirok etish imkonini beradi. [3] Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim oluvchilarning axborotni

eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etsa, noan'anaviy metodlar ya'ni dars jarayonida multimedya vositalari qo'llanilganda esa, ta'lism oluvchilarining axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi. Shunday qilib, bugungi kunda oliy ta'lism muassasalarining o'qituvchilari oldiga o'qitilayotgan fanning o'zlashtirish sifatini oshirish vazifasi bo'yicha yangi topshiriqlar va talablar qo'yilmoqda. Bu borada ingliz tili fanini o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda, bundan ko'zlangan asosiy maqsad, ingliz tili fanini o'qitishni takomillashtirish va uni yanada rivojlantirishdan iboratdir. Ingliz tili fanini o'qitishda, undagi mavzularni tushuntirishda va ko'rgazmalilikni tashkil etish, multimedya vositalaridan unumli va kerakli o'rnlarda to'g'ri foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Talabalarni ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyanı rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish, o'z navbatida mavjud to'plangan ma'lumot va axborotlar ustida ishlashni yengillashtiradi. Bugungi kunda bo'lg'usi ingliz tili o'qituvchilarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, ya'ni o'quv adabiyotlarining yangi avlodи elektron darsliklar va video-audio materiallari yordamida rivojlantirish eng samarali va tezkor usullardan hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyanı multimedialiyy vositalar yordamida rivojlantirish talabalarda ko'p madaniyatli dunyoda hamkorlik qilishga tayyorlik va buni uddalay bilishni taxmin qiladi. Ingliz zabon mamlakatlar va jonajon mamlakatining madaniyatini o'rganish madaniyatlararo muloqot kompetensiyanı rivojlantirishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan lingvomamlakatshunoslik yo'nalishidagi taqdimotlar blokida matn va illyustratsiyalar ko'rinishidagi axborotni tanlab olish, uni bayon etishda izchillikka rioya qilish, materialni estetik bezashga alohida e'tibor qaratiladi. Materialni bunday tuzish talabalarga nafaqat AQSH va Buyuk Britaniyaning tarixiy rivojlanishiga oid turli davrlarda sodir bo'lgan voqealar va odamlar to'g'risida ko'rgazmali tasavvurga ega bo'lish, bu mamlakatlar madaniyatini tushunish, balki mashg'ulotlarda shakllantirilgan ijtimoiy-madaniy muhitga sho'ng'ish imkoniyatini beradi. Madaniyatlararo muloqot kompetensiya muloqot malakasining muhim qismi va zamonaviy insonning ajralmas

belgisi hisoblanadi. Boshqa madaniyat, til va fikrlash tarziga nisbatan hurmat va bag‘rikenglik zamonaviy dunyoda haqiqiy qadriyatga aylandi. Shunday qilib, ingliz tili mashg‘ulotlarida multimedia vositalaridan foydalangan holda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish ingliz tilini o‘qitish ta’limini rivojlantiradi, chunki talabaga taqdimot tayyorlashda tanlash imkoniyati beriladi; mustaqil ishslash va o‘zini nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi va h.k. Bizning fikrimizcha, ingliz tili mashg‘ulotlarining ayrim mavzularini o‘rganishda multimedia vositalarini o‘qitish jarayonida joriy etish mahalliy ko‘lamda chet tilidagi axborotni o‘zlashtirishning samarali vositasi hisoblanadi va ilova bilan ishslash ko‘nikmasi hamda malakasini shakllantiradi. Bu esa talabalarga kelgusi professional faoliyatida muhim ko‘nikma hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, chet tilini o‘rganish va boshqa madaniyatlarni tushunish uchun tilga chuqurroq kirib, qiziqarli faktlar va ma’lumotlarni multimedia vositalari yordamida o‘rganish ham yaxshi natija beradi. Biz bu tuyg‘uni talabalarimiz bilan baham ko‘rishga, ularning mamlakatimizga bo‘lgan muhabbatini yanada rivojlantirishga va boshqa mamlakatlar va xalqlar madaniyati hamda tiliga katta hurmatni namoyon etishga harakat qilmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent: RTM, 2000. -46 b.
2. Akopyans A.M. Pragmalingvodidaktika – sovremennaya paradigma obucheniya inostrannym yazyikam // Inostrannyu yazyik v shkole. – № 3. – Moskva, 2009. – S. 17-21.
3. Galskova N.D. Mejkulturnoe obuchenie: problema seley i soderjaniya obucheniya inostrannym yazyikam // IYASH. – 2004. – № 1. – s. 3–8.
4. Sh.I.Musayeva. Principles of development of cadets' intercultural communication competence through English language teaching // PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – Tashkent, 2023. - № 22. – P. 46-50.
5. Sh.I.Musayeva. Kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlar yordamida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish. – Образование наука и инновационные идеи в мире. - Москва, 2023. - № 2. –C. 94-100.
6. Quvondiqov M.I., & Musayeva Sh.I. (2023) YANGI KONSTITUTSIYA-YANGI KELAJAK TAYANCHI. PEDAGOGS jurnali, 32(2), 142-145.
7. Qizi Ikanova L.S. (2020) IMPROVING LISTENING SKILLS THROUGH ICT. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(11), 334-338.